

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIYOJLANTIRISH VAZIRLIJI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

"ALGORITMLASH VA MATEMATIK MODELLASHTIRISH"
KAFEDRASI


Yu.M.ABDURAXMANOVA,
F.S.RAXIMOVA

DISKRET MATEMATIKA

FANIDAN

MAXSUS SIRTQI TA'LIM YO'NALISHI TALABALARI UCHUN
MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISH BO'YICHA

USLUBIY KO'RSATMA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

"ALGORITMLASH VA MATEMATIK MODELLASHTIRISH"
KAFEDRASI

Yu.M.ABDURAXMANOVA,
F.S.RAXIMOVA

DISKRET MATEMATIKA

FANIDAN

MAXSUS SIRTQI TA'LIM YO'NALISHI TALABALARI UCHUN
MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISH BO'YICHA

USLUBIY KO`RSATMA

Toshkent-2018

Abduraxmanova Yulduz Muxtorxodjayevna, Raximova Feruza Saidovna
Diskret matematika fanidan maxsus sirtqi ta'lif yo'nalishi talabalari uchun mustaqil
ishlarni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma. - Toshkent: TATU, 2018. 42 bet.

Tuzuvchilar:

- Yu.M.Abduraxmanova** - «Algoritmlash va matematik modellashtirish» kafedrasi
mudiri,
F.S.Raximova - «Algoritmlash va matematik modellashtirish» kafedrasi
katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

- A.V.Qobulov** - O'zbekiston Respublikasi Muhandislar federatsiyasi
rahbari, t.f.d., professor
A.N.Mirzaev - “Algoritmlash va matematik modellashtirish” kafedrasi
dotsenti, f.-m.f.n.

†

Ushbu uslubiy ko'rsatma “Algoritmlash va matematik modellashtirish” kafedrasi
majlisida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.
(15 05 2018 yil 15 - bayonnomma)

Uslubiy ko'rsatma “Dasturiy injiniring” fakultetining ilmiy-uslubiy kengashida
tasdiqlangan.
(22 05 2018 yil 10 - bayonnomma)

MUNDARIJA

Kirish.....	4
Talabalar mustaqil ishlarining mazmuni va asosiy shakllari.....	4
Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari	8
Mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo'lgan vazifalar	8
Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlarni tashkil etish tartibi	9
Kitob, ilmiy jurnal, maqolalar to'plami, tezislar to'plami bilan ishlash jarayoni	10
<i>Kitobning tarkbiy apparati</i>	10
<i>Reja tuzish tartibi</i>	11
<i>Konspekt</i>	12
<i>Referat</i>	14
<i>Axborotni og'zaki ravishda uzatish</i>	19
<i>Taqdimot (Xabar berish)</i>	20
Mustaqil ishlarning namunaviy mavzulari	21
Hot potatoes dasturi yordamida mustaqil ishlarni bajarish	25
Talabalar mustaqil ishlarini nazorat qilish va baholash tartibi	38
Mustaqil ta'lim bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar	41
<i>Asosiy adabiyotlar</i>	41
<i>Qo'shimcha adabiyotlar</i>	
42 Ошибка! Закладка не определена.	
<i>Internet resurslar</i>	42

Kirish

Mazkur uslubiy ko'rsatma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 14 avgustdag'i 286-sonli «Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish to'g'risidagi buyrug'i bilan tasdiqlangan «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish» bo'yicha yo'riqnomasi, 2012 yil ___ avgustdag'i ___ - sonli buyrug'i bilan amalga kiritilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida Nizom"ga ko'ra hamda TATU Ilmiy Kengashining 2017 yil ___ iyuldag'i ___ bayonnomasi bilan tasdiqlangan maxsus sirtqi ta'lim yo'naliishi uchun «Diskret matematika» fani bo'yicha tuzilgan ishchi o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.

«Diskret matematika» fanidan tayyorlangan ushbu uslubiy ko'rsatma Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti maxsus sirtqi ta'lim yo'naliishi talabalarining mazkur fandan mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilishda foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Mustaqil ishning o'ziga xosligi shundaki, o'quv faoliyatining bu qismi talabalarning mustaqil faoliigi hamda tegishli professor-o'qituvchilarning nazorati asosida tashkil etilib, o'quv rejada ajratilgan soatlar hajmiga ko'ra amalga oshiriladi.

Mazkur uslubiy ko'rsatmada talabalar mustaqil ishlarining asosiy shakllari va ularning mazmuni, mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo'lgan vazifalar, mustaqil ishni bajarish bo'yicha maslahatlarni tashkil etish, ularni nazorat qilish va baholash tartibi bayon etilgan.

Fanning maqsadi – talabalarini nazariy ko'nikmaga ega bo'lishi, diskret matematika fani bo'yicha asosiy, mavzularni o'zlashtirish, mavzularga doir amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi.

Fanning vazifasi quyidagilardan iborat: diskret matematika fani bo'yicha amaliy masalalarni yechish, amaliy masalalarni yechiga axborot texnologiyalarini tatbiq qilish.

Mazkur fan "Informatika", "Kriptografiya", "Kriptologik tahlil", "Sxemotexnika", "Elektron zanjirlar nazariyasi", "Algoritmgan kirish" kabi fanlar bilan uzviy bog'liqdir va talabalarning ushbu fanlardan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini talab etadi.

«Diskret matematika» fanini o'rganishda bu kurslardan olingan nazariy va amaliy bilimlar fanning umumiyy nazariyasini chuqur o'zlashtirishda ko'prik vazifasini o'taydi.

Talabalar mustaqil ishlarining mazmuni va asosiy shakllari

«Diskret matematika» fani bo'yicha talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish ularda axborotlar va ular bilan ishlashga doir bilim, dunyoqarash, ijtimoiy faoliik va mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi. U o'quv rejasi va fanlar dasturlarida ko'zda tutilgan zarur bilimlar va ko'nikmalarning talabalar tomonidan oqilona, kam vaqt va kuch sarflab o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

«Diskret matematika» fanini o'qitish jarayonini takomillashtirish, talabaning qiziqishlarini anglash, faolligini va mustaqil ishlarini rivojlantirish yo`nalishida boradi, bunda talabalarning ijodiy fikrashi, mustaqil o'qish ko`nikmasi va layoqatlari shakllanadi.

Talabaning mustaqil ishi – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko`nikma va malakaning ma'lum bir qismini maxsus sirtqi ta'lim yo`nalishi talabalarini tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o`zlashtirishiga yo`naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ishni bajarishdan **asosiy maqsad** – kafedra professor-o'qituvchilarining bevosita rahbarligi va nazorati ostida maxsus sirtqi ta'lim yo`nalishi talabalarining o'quv jarayoni boshlanguniga qadar fanni uzlusiz o'rganishini tashkil etish, olingen bilim va ko`nikmalarni yanada mustahkamlash, kelgusidagi darslarga tayyorgarlik ko'rish, aqliy mehnat madaniyatini, yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish va qabul qilishni shakllantirish natijasida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga erishishdan iborat.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi ko`nikmalar hosil bo`lishiga muvofiq ravishda o`zgarib, oshib borishi lozim. Ya`ni talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularning topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondoshishga o`rganib borishi kerak.

«Diskret matematika» fani bo'yicha maxsus sirtqi ta'lim yo`nalishi talabalarining mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o`zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda **quyidagi shakllardan** foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o`zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishslash;
- o'quv jarayonida tashkil etiladigan mashq'ulotlarga tayyorgarlik ko'rib borish;
- belgilangan mavzular bo'yicha referat tayyorlash;
- fanga doir tuzilgan testlarni yechish;
- Hotpotatoes dasturi yordamida krossvordlar tuzishni o'rganish;
- Hotpotatoes dasturi yordamida fanga oid testlar tuzishni o'rganish va ularni yechish;
- amaliyotdagagi mavjud muammoning yechimini topish bo'yicha keyslar yechish;
- munozaralı savollar va topshiriqlarga tayyorgarlik ko'rish;
- talabalarning ilmiy seminarlari va to'g'araklarida ishtiroy etish;
- ko'rgazmali vositalar tayyorlash;
- kurs ishi (loyihalari)ni bajarish;
- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;
- ilmiy maqola, tezislari va ma'sruza matnlarini tayyorlash;
- “talaba-o'qituvchi-kutubxona” kunida fan bo'yicha yangi o'quv adabiyotlari sharhini o'qituvchi bilan hamkorlikda tayyorlash;
- Axborot-resurs markazida belgilangan mavzular bo'yicha nazariy, amaliy va statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishslash va muayyan tizimga solish;

- belgilangan mavzular bo'yicha zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida taqdimot materiallari tayyorlash;
- talabalar turar joyida ma'naviyat xonasi, kutubxona, zamonaviy axborot texnologiyalar markazi imkoniyatlardan foydalanilgan holda mustaqil o'qish jarayonlarida ishtirok etish;
- fakultativlar va maxsus seminarlar ishlarida ishtirok etish;
- fan bo'yicha dars beradigan kafedraning ilmiy hamda ilmiy-uslubiy ishlarida ishtirok etish va boshqalar.

Maxsus sirtqi ta'lim yo'naliishi talabalarining mustaqil ishi ta'lim va tarbiyaning shunday vazifalariga bo'ysundirilganki, ular uchun reja bo'yicha tashkil etilgan o'quv jarayoni to'laligicha talabalar tomonidan faol, ongli, puxta va tizimli ravishda fan asoslarini o'zlashtirish va ularda iqtisodiy dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi. Bu vazifalar ta'lim jarayoni va shaxsni shakllantirish qonuniyatlarini bilmasdan va foydalanmasdan turib hal qilinishi mumkin emas. Ularning mazmuniga qisqacha to'xtalib, quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

Mavzuni mustaqil o'zlashtirish. Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va o'chib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib, ushbu mavzuni konseptflashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur ho'llarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) o'qituvchidan maslahatlar oladiilar. Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matm o'qituvchiga himoya qilish orqali topshiriladi.

«Diskret matematika» fani bo'yicha mustaqil ishlarni referatlar shaklida tashkil etilishi talabalarni ilmiy-ijodi o'quv jarayoniga jalg qilishning keng tarqalgan usullaridandir. Talabalar ilmiy ijodi ta'lim shakllaridan biri sifatida o'qitish, bilim berish va tarbiyalash vazifalarini bajarishda o'z xususiyatlariiga ega. Talaba tadqiqot faoliyatiga jalg qilinib, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, statistik va boshqa materiallarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi, o'rganilayotgan hodisani tanqidiy baholashga o'rganadi, nazariyani amaliyot bilan bog'laydi va h.k.

Agar referat tayyorlashning darslik bo'yicha tayyorlangan seminar mashg'ulotidagi chiqishga qaraganda mazmun va sifat jihatdan yuqoriligi hisobga olinsa, referat shubhasiz katta foya keltiradi. Talaba auditoriya oldida referatda bayon qilingan qoidalarni himoya qilishga, yoqlashga tayyorlanishi kerak, Informatika fanini o'rganishda bu muhim ahamiyatga ega.

Referat - bu talabalar mustaqil ishlaring samarali shakllaridan biridir. Mazkur shakl talaba tomonidan referat mavzusini tanlash, unda yoritiladigan masalalar mazmunini oldindan rejalashtirish, referatni tayyorlash va muhokama qilishning barcha bosqichlarida kafedra professor-o'qituvchilarining tashkiliy-uslubiy

yordami va maslahati asosidagina samarali amalga oshishi mumkin. Bu yerda o'qituvchi tomonidan talabalarning referat ishlariiga rahbarlik qilish qanchalik batafsil va malakali amalga oshirilganligi va referatlarga talablar mezoni qanchalik to'g'ri qo'yilganligi albatta, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Topshiriq talabalarning referat yozish ko'nikmalarini, ilmiy qiziqishlari va bilim darajasini hisobga olgan holda berilishi juda muhim.

Ko'rgazmali vositalar va taqdimotlar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar tayyorlash vazifasi topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'rqliar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga yoki talabalar guruhiga topshirish ham mumkin.

Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.

Talabaga mustaqil ish sifatida muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darjasи har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish vazifasi topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali jihatlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'rqi beriladi.

Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi ham tanlashi mumkin) ilmiy maqola, tezis yoki ma'ruba tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiytadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalardan mavzuga tegishli materiallar to'playdi.

Talabalarning ilmiy-nazariy konferentsiyalari ham talabalar mustaqil ishlaring shakllaridan biridir. Kafedra professor-o'qituvchilari talabalar ilmiy-nazariy konferensiyasini tashkil etish orqali o'z ishini guruhning kasbiyo'naltirilganligini, a'zolarining yosh tarkibini, qiziqishlarini hisobga olib, tabaqalashgan holda tashkil qilishi kerak. Faqat shu holdagina talabalarning konferensiyani o'tkazishda faol ishtiroti va manfaatdorligi ta'minlanadi. «Diskret matematika» fanı bo'yicha talabalarning ilmiy-nazariy konferensiylarini quydagi bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqlirdi:

1-bosqich – fan o'qitilayotgan barcha o'quv guruhlarida konferensiylarini o'tkazish;

2-bosqich – har bir guruhda tanlab olingan talabalarning eng yaxshi ma'ruzalarini fakultet konferensiyasiga taqdim etish va o'tkazish;

3-bosqich – fakultetda o'tkazilgan konferensiyada tanlab olingan eng yaxshi ma'ruzalarini universitetda o'tkaziladigan ilmiy-nazariy konferensiyaga taqdim etish.

Butun guruhlar uchun yagona bo'lgan konferensiya mavzusini tasdiqlab, talabalarning ma'ruba va chiqishlarini guruhlarning qiziqishlariga qarab ixtisoslashtirish mumkin.

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari

Maxsus sirtqi ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etishda «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish» bo'yicha yo'rqnoma belgilangan quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Talabalar mustaqil ishlarini ikki ko'rinishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etish.

2. Talabalar mustaqil ishlarini tizimli ravishda, ya'ni bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishini ta'minlash.

3. Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratish:

- talabaning o'qish bosqichi;

- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati, o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasiga;

- talabaning qobiliyati, nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasiga;

- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasiga;

- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasiga;

- mustaqil ish uchun topshiriqlarning kursdan-kursga o'tish bilan shakl va hajm jihatidan o'zgarib borishiga.

Mustaqil ishni amalgalashuvda bajarishi lozim bo'lgan vazifalar

«Diskret matematika» fanidan maxsus sirtqi ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi vazifalarni bajarishlari lozim:

- fanga doir darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanning alohida bo'limlari va mavzularini o'rganish;

- tarqatma materiallar asosida ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

- o'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan dasturiy tizimlari bilan ishlash;

- qo'shimcha adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

- Axborot-kommunikatsion texnologiyalarining yangi texnik vositalari va texnologiyalarini o'rganish;

- o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan bo'limlar yoki mavzularni chuqur o'rganish;

- zarur ma'lumotlarni izlab topish uchun qulay usullarni va vositalarni aniqlash;

- axborot manbalaridan samarali foydalanish;

- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar hamda me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;

- elektron shakldagi o'quv va ilmiy adabiyotlar hamda ma'lumotlar banklari bilan ishlash;

- Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;

- topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashish;

- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash va talabalar davrasida himoya qilish.

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlarni tashkil etish tartibi

Maxsus sirtqi ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga mo'ljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yo'llanmalar berish va uning bajarilishini nazorat qilib borish maqsadida tashkil qilinadi.

Shu munosabat bilan zamonaviy pedagogika texnologiyalarini amalga oshirish sharoitlarida maxsus sirtqi ta'lim yo'nalishi talabalarini quyidagi qo'nikma va mahoratlarni egallab olishlari zarur:

1-maslahat. Ma'ruza, amaliyat va laboratoriya mashg'ulotlarda mustaqil faoliyat ko'nikmalari: asosiy qoida va xulosalarni qisqa, chizma shaklida va ketma-ket yozib borish, o'quv vazifalarini va masalalarini hal etish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni topish, bilish, tushunish, tanqidiy baholay olish va yetkazib berish, hamda belgilar va ramzlar yordamida uni referat, hisobot shakliga keltira bilish; qo'yilgan talablarga muvofiq o'z matnnini tuza olish. Bu esa talabaning Insert, Toifali sharh qurish kabi ta'lim uslub va vositalarini amalga oshirishga faol ishtirok etishiga, ma'lumotlarni tizimlashtirish va tizimdan chiqarish, tahlillash va qiyoslashga, o'rganilayotgan tushunchalar (voqealar, hodisalar, mavzular va boshqalar) o'rtaсидаги aloqalar va o'zaro aloqalarga, klaster, toifali jadval, kontseptual harita, SWOT, FSMU, "Nilufar guli", T-jadval, Venn diagrammasi, piramida; baliq skeletidan foydalangan holda muammoni hal etishni rejalashtirishga tayyor ekanligidan va asoslangan esse va o'quv loyihasi bajarilishi to'g'risida hisobot yoza olishingizga dalolat beradi;

2-maslahat. Taqdimot ko'nikmalari: chiqish vaqtida, shu hisobda o'quv topshirig'i bajarilishi natijalarini bo'yicha, talaba o'zini o'qituvchi va boshqa talabalar bilan ishonchli tuta oladi va har xil vositalardan foydalana oladi;


3-maslahat. Kommunikativ ko'nikmalar: o'qituvchi va talabalar o'rtaсида o'quv munosabatlarini yarata olish xususiyati, o'z nuqtai nazarini himoya qila olish va murosaga kelish, dialogga qo'shilish, mohiyati bo'yicha savol berish, asoslangan javoblarni berish, qoidaga rioya qilgan holda bahslashish, muzokaralar va davra suhbatlarida qatnashish;

4-maslahat. Hamkorlikdagi ishlarni ko'nikmalari: guruh bilan harakat qilishga tayyor bo'lish – o'quv topshirig'ini bajarish bo'yicha qo'shma faoliyatni jamoali rejalashtirish, umumiylar masalalarini yechishda hamkorlik qilish, ishbilarmon sherikchilik va o'zaro aloqada bo'lish;

5-maslahat. Muammoli holatlar tahlil qilish ko'nikmalari, o'quv vazifasini yechish, g'oyalarni generatsiya qilish va qarorlarni qabul qilishning nostandart usullarini topish, bu o'z navbatida Sizning muammoli lektsiya, tahlilda va o'quv holatlarini (Keys stadi) hal etish faol ishtirokingizni ta'minlaydi.


6-maslahat. Ma'lumotlarni qidirish, yig'ish, ishllov berish va saqlash uchun zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalardan foydalana olishning amaliy ko'nikmalari: mustaqil ishi natijalarini bezash bo'yicha o'quv topshiriqlarini bajarish (nutqlar, referatlar, o'quv loyihalari va boshqalar).

Kitob, ilmiy jurnal, maqolalar to'plami, tezislar to'plami bilan ishlash jarayoni



Kitobning tarkibiy apparati

Kitob bilan ishlash mahorati ko'p jihatdan uning tarkibiy elementlari haqida bilimga ega bo'lish va rolini tushinish, uni o'qishgacha kitob haqida zaruriy ma'lumotni chiqarib olish mahoratiga bog'liq bo'ladi.



Sarlavha: ilmiy adabiyotlarda mavzuga urg'u beriladi

Annotatsiya: titul varag'i orqasida joylashgan; qay yo'nalishga qaratilganligi ko'rsatilgan mazmunning qisqartirilgan tavsifi

Mundarija: mavzu rejasи, kitob bo'yicha yo'l ko'rsatuvchi

So'z boshi: muallif tomonidan qo'yilgan vazifalar bayoni; nashr yoki qayta nashr etish zarurligi

Xotima: qisqacha xulosalar

Ma'lumotlar: tushuntirish talab etiladigan tushuncha, atama, faktlarga izoh

1. Bitta ilmiy kitobni tanlang, uning tarkibiy apparatini o'rganing. Kitob mazmuni va tarkibi haqida o'zingizning fikringizni bildiring.

2. To'plam yoki jurnalni tanlang. Sharh bering. Sharhda quyidagi holatlarni qayd eting:


1. To'plam, jurnal nomlanishi; ixtisosligi.
2. Nashriyot.
3. Chiqish davriyligi. Shu kabi nashrlar o'rtaida uning o'rni.
4. Bo'limlari, mavzulari.
5. Chop etilgan materiallarning ajralib turadigan jihatlari.
6. Eng qiziqarli ishlar, ularning muammo doirasi.
7. Tahlil qilinayotgan nashrn ni baholash.

Reja tuzish tartibi

Reja – eng qisqa yozma matn:

- fikrlar ketma-ketligini o'zida mujassam etadi va umumlashtiradi;
- matn mazmunini ochib beradi;
- manba mazmunini xotirada tiklaydi;
- konsept va tezislар o'mini bosadi;
- har xil turdagи yozishmalar, ma'ruza, xabarnoma, hisobot tuzishga yordam beradi;
- amaldagi yozmani yaxshilaydi;
- o'z-o'zini nazorat qilishni tezlashtiradi;
- e'tiborning bir nuqtada bo'lishligiga va mashg'ulotlarni rag'batlantirishga imkon beradi;
- yaxshi tanish matnning xotirada paydo bo'lighida foydalaniлади.

Izoh: haqiqatdagi mazmunni uzatmaydi, faqat unga yo'nalish beradi va uzatish sxemasini ko'rsatadi.



KONSPEKT

- reja, ko'chirib olingen matn va tezislarni birlashtirish tushuniladi;
- ifodaning ichki mantiqini ko'rsatadi;
- asosiy xulosa, faktlar, isbotlar, uslublarni o'zida mujassam etadi;


- materialga bo'lgan uning tuzuvchisi munosabatini aks ettiradi;
 -faqatgina tuzuvchi emas, balki boshqa kitobxon tomonidan ham foydalanish mumkin.

- Nima haqidagi gap ketishi
- Nima tasdiqlanishi
- Qanday isbotlanishi

Konspektda muhim

Ko'p so'zlardan, ortiqcha iqtibos (sitata) keltirishdan, mantiqqa zarar keltiruvchi matn stilistik xususiyatlarini saqlashga harakat qilishdan ehtiyoj bo'lish zarur.

O'qilgandan so'ng matnni konspektlash usullari



1-variant

Tayanch so'zlar	Mohiyat, asosiy fikr	Asosiy fikrni ochish	Xulosa, savollar, shaxsiy munosabat

2-variant

Asosiy savollar	Savollarni ochib berish

? Bu kabi konspektlash nima beradi? Talaba o'zi uchun qanday shakldagi konspektlashni tanlashi mumkin?

□ Har xil ko'rinishdagi konspektlarga talabaning talab doirasini aniqlash: rejali, matnli, erkin, mavzuli (sharhli hamda xronologik). U yoki bu turdag'i konspektga zaruriyat nima bilan tushuntiriladi?

REFERAT

Referat – mayjud matn yoki bir qancha matnlarni izohlovchi shakllaridan biri sanaladi. Shu boisdan, konspektdan farqli o'laroq, referat yangi, muallif matn sanaladi. Ushbu holatda yangilik yangicha taqdim etish, materiallarni tartiblashtirish, har xil nuqtai nazarlarni o'zaro solishtirishda alohida mualliflik yondashuvni tushuniladi.

Shunday qilib, *referatlashtirish o'zida bir yoki bir qancha manbalarni turlashtirish, umumlashtirish, tahlil va sintez qilishga asoslanib ma'lum bir savolni ifoda etishni mujassam etadi.*

Referat – har xil nuqtai nazarlarni o'zaro solishtirish va tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lishni talab etadigan bir yoki bir qancha manbalarni o'zida mujassam etadigan g'oyalarni qisqacha yozma ko'rinishdagi taqdimotidir.

Referatning xususiyati:

- *mufassal isbotlar, solishtirmalar, mulohazalar, baholarni o'z ichiga olmaydi*
- *matnda yangi, muhim savollarga javob beradi.*

¶

Referat turlari


Ifodalanish to'liqligiga
ko'ra

Informativ (referatlar – konspektlar)
Indikativ (referatlar – rezyume (qisqacha
mazmun)

Referatlashtiriladigan
manbalar soniga ko'ra

Monografik
Sharh shaklida

Referat ifoda etilayotgan savolga referentning sub'ektiv qarashlarini hamda matnga baho berishni o'zida mujassam etmasligi lozim.



Referat asosiy e'tiborni yangi ma'lumotlarga qaratadi va dastlabki matnga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqligini aniqlab beradi!

O'quv fani bo'yicha referat tayyorlash quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

- O'quv predmeti dolzarb nazariy masalalari bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish, talaba tomonidan mavzuga olingan nazariy bilimlarni ijodiy qo'llash ko'nikmasini hosil qilish.
- Tanlangan kasbiy sohada xorij tajribalarini, mavjud sharoitlarda ularni amaliy jihatdan qo'llash imkoniyatlari va muammolarini o'zlashtirish.
- Tanlangan mavzu bo'yicha har xil adabiy manbalarni (monografiya, davriy nashrlardagi ilmiy maqolalar va shu kabilar) o'rganish qobiliyatini takomillashtirish va ular natijalari asosida tanqidiy yondashgan tarzda mustaqil hamda bilmidon holda materialni ifoda etish, ishchonchli xulosa va takliflar qilish.
- Yozma ko'rinishdagi ishlarni to'g'ri rasmiylashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Referat oddiy tarzda materiallarni ko'chirish, bir yoki bir nechta manbalar materiallarni o'g'irlab ko'chirish bilan hech qachon murosasa qilmaydi. Unda

muallif tomonidan adabiyotni o'rganish orqali o'z fikrlari, qarashlari, xulosa va takliflari aniq tarzda ifoda etilishi lozim.

Referat ustida ishlash tartibi

1. Mavzuni tanlash

Kafedra tomonidan taklif etiladigan referat mavzulari misol tarikasida bo'ladi. O'zingiz shaxsiy qiziqishingiz va maylingizga javob beradigan mavzu tanlashga harakat qilish maqsadga muvofiqdir. O'zingiz qiziqishingiz doirasida, tanlangan muammo va uni asoslashga tayani kafedra taklif etgan mavzuga kirmagan referat mavzusini taqdim etishingiz mumkin. Ushbu holatda taklif etayotgan mavzuiningizni qat'iy ravishda ilmiy rahbaringiz bilan kelishib olishingiz zarur bo'ladi.

2. Tayyorlov bosqichi: asosiy manbalarni o'rganish

Referat mavzusini tanlaganiningizdan so'ng (1) tanlangan mavzuga oid savollar doirasi bilan tanishing:

- ma'ruza materiallarini qarab chiqing;
- fan bo'yicha o'quv dasturida ushbu mavzuni o'rganish uchun tavsiya etilgan adabiyotlар bilan qaytadan tanishib, ularni tahlil qiling.

□ *Ushbular mavzu mohiyati, utning o'rganilayotgan kursdagi o'rni va ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lishingizga yordam beradi.*

(2) axborot-kutubxona markazlarida, shuningdek shahar kutubxonalarida mavjud bo'lgan kataloglardan foydalangan holda referat mavzusi bo'yicha adabiy manbalar doirasini kengaytiring.

O'quv va monografik adabiyotlar bilan bir qatorda quyidagi davriy oylik jurnallarda: «TATU xabarlari», «UZINFOCOM», «ALOQA», «UNICON.UZ», «Energetika va informatika muammolari» ilmiy jurnallari, «XABAR» gazetasi va shu kabilarda chop etilgan ilmiy maqolqlardan ham foydalanish mumkin.

Referat sifatini oshirishda mavzuga taalluqli O'zbekiston Respublikasining konuniyu hujjatlari hamda hukumat qororlaridan foydalanish ham muhim o'rinn tutadi.

Ishning dastlabki bosqichi yakuni bo'lib bibliografiya xizmat qilaadi.

3. Zaruriy materiallarni konspektlash

4. Tadqiqot muammosi mantig'ini yaratish

Referat rejasи quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- kirish;
- asosiy qism;
- xulosa;
- foydalilanilgan adabiyotlar ro'yhati;
- ilova (zarurat bo'lganda).

Referat rejasi tanlangan mavzuga taalluqli va uning asosiy mazmunini qamrab oladigan savollar doirasini aniqlaydi. U referentga mavzu materiallarini yig'ishda umumiyo'nalishni olishga imkon beradi, uning to'g'ri tanlanishi va ifoda etilishini ta'minlaydi.

Puxta o'ylab chiqilgan, har bir qismi tanlab olingan material bilan ta'minlangan reja – referatni muvaffaqiyatli yozish muhim asosidir.

Referatning asosiy qismini o'z lo'nda va aniq nomiga ega savol va kichik savolchalar (qismchalar)ga bo'lib chiqish zarur.

5. Yig'ilgan materialni tartiblashtirish va yozish

Kirish qismida nazariy va amaliy jihatdan mavzuning dolzarbligi asoslanadi, maqsadlar shakllantiriladi va vazifalar belgilanadi.

Agarda referat monografik (bitta manba va muallif referatlashirilsa) ko'rinishda bo'lsa, kirish qismida:

- muallif haqida qisqacha ma'lumot (ilmiy darajasi, unvoni, uning mutaxassisligi, boshqa ishlari);
- mavzu manbasining qisqacha bayoni;
- ish maqsadi;
- rubrikasi;
- muallifning tutgan o'rni va boshqalar keltiriladi.

Referat asosiy qismida barcha muhim fikrlar aks ettirilishi zarur.

Rejaga binoan, referatning asosiy qismi yig'ilgan materialni taqsimlashga ko'ra mos ravishda savollar va savolchalarga (qismlargacha) ajratilishi talab etiladi.

Har ajratilgan savol, savolcha (qism), referatni tarkibiy qismlarga ajratish butunligicha quyidagi formula asasida bo'lishi lozim: vazifa-ishlanma-xulosa.

Ifoda shakli – referent tanlovi: konsept shaklida, fragmentli, tahliliy.

Adabiyotlarni annotatsiya yo'liga sakrashga yo'l qo'yilmaydi. Har bir manba tadqiqot qilinayotgan mavzu doirasidagina tahvil qilinmog'i lozim bo'ladi.

Referat matnidagi ibora va so'z birikmalari namunalari

- « ... ishda ... tizim qarab chiqiladi»
«Kirish qismida ko'rsatiladiki, ya'ni ... »
«Muallif shuni nazarda tutadiki, ya'ni ... »
«1-bobda quyidagi savollar yoritiladi ... »
« ... 2-bobda tadqiq etiladi»
« ... haqda gapirib, muallif ta'kidlaydiki, ... »
«Ishda shuningdek quyidagiga e'tibor qaratiladi ... »
«SHunday qilib, muallif ... degan xulosaga keladi»
«3-bobda ... tatqiq etiladi, ... qarab chiqiladi»
« ... zarurati aniqlanadiki ... »
«Xulosada muallif shunday yozadi: ... »

Materialni ifoda etish tavsifiy xarakterga ega bo'lmasligi kerak. Mos ravishda xulosalari bo'lgan tahlil, shuningdek matn bilan uzviy bog'langan statistik materiallar tahlili bo'lmos'i lozim.

Katta hajmli statistik ma'lumotlarni jadval holiga keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Statistik ma'lumotlar asosida diagrammalar, grafiklar, gistogrammalar qurish u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tushunarliroq ifoda etishga yordam beradi.

Barcha referatda keltiriladigan *jadvallar*, *diagrammalar*, *grafiklar*, *sxemalar*, *rasmlar nomlanishi va tartib raqami qo'yilishi kerakdir*. Ular tagiga ushbu statistik ma'lumotlar olingan *manbalar betlari* ham ko'rsatilgan holda qo'yilishi qat'iy talab etiladi.

Matnda keltiriladigan *barcha raqamlar* tegishli *manbalarga havolalarni* keltirilishi talab etiladi.

Matnda *iqtibos* keltirilsa yoki mualliflar ilmiy-tadqiqot ishlaridagi *xulosalar*, *qaydlar*, *mulohaza va fikrlardan* foydalanilgan holatda muqarrar ravishda *havolalar bo'lishi lozim*.

Referat qadr-qimmati muammoli savollar bo'yicha har xil qarashlarni tahlil qilish, qabul qilinadigan yoki o'zining tutgan mavqeini asoslash sanaladi.

Xulosa tanlangan mavzuni o'rganish natijasida talaba qilgan xulosalarni o'z ichiga oladi, shunigdek, hal etilmagan va kelgusida hal etilishi talab etiladigan savollarga bag'ishlanadi.

6. Adabiyotlar ro'yxatini rasmiylashtirishni tekshirish

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati ma'lum bir tartib asosida tuziladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari;
2. O'zbekiston Respublikasi Farmonlari;
3. O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari;
4. Me'yoriy aktlar, ko'rsatmalar;
5. Davriy nashrlarda chop etilgan kitoblar, maqolalar.

Manbalar bibliografik qaydida quyidagilar ko'rsatiladi: muallif ismi va sharifi, kitob nomi, chop etilgan manzilghi, nashriyot nomi va chop etilgan yili. Agarda maqola jurnal (*gazeta*) da chop etilgan bo'lsa, jurnal (*gazeta*) nomi, tartib raqami va yili, beti keltiriladi.

7. Matnni tahrir qilish. Matnni imlo va statistika nuqtai nazaridan tekshirish

Referat ravon tilda aniq yozilgan bo'lishi va jalg etadigan ko'rinishga ega bo'lmos'i lozim. So'zlar qisqartirilishiga, faqat umumiyligini qilinganlardan tashqari, shuningdek, xatoliklarga, tushunarsizliklarga, stilistik tafovutlarga yo'l qo'yilmaydi.

Referat ilmiy rahbarga taqdim etilishi holatida barcha taraflama maksimal darajada me'yoriga yetkazilgan bo'lmos'i lozim.

8. Referatni rasmiylashtirish

Ilmiy rahbarga taqdim etiladigan referat kompryuterda 12-shrift, 1,5 interval oralig'ida A4 shaklidagi qog'ozning bir tomonida chapdan – 2,5 sm, o'ngdan – 1,5 sm, yuqori va pastidan – 2 sm dan kam bo'limgan hoshiya qoldirilgan holda terilishi talab etiladi.

Matn sahifalari tartib raqamlariga ega bo'lishi lozim. Tartib raqamlari bir varaqdan ikkinchi varaqqa o'tadigan va 3 betdan boshlanishi (birinchi va ikkinchi varaq - bu titul varag'i va ish rejasi bo'lib, nomerlanmaydi) lozim bo'ladi.

Varaq tartib raqami yuqoriga o'rtadan yoki o'ng tomonga qo'yiladi.

Referat hajmi 16-20 betdan oshmasligi lozim.

Referat quyidagilardan:

- 1) titul varag'i;
- 2) har bir savol, savolcha (qism) varag'i tartib raqami ko'rsatilgan ish rejasi;
- 3) kirish, tartib raqami qo'yilmaydi;
- 4) manbalarga havolalar keltirilgan savol va savolchalarga (qismlarga) bo'lingan matn ifodasi;
- 5) xulosa, tartib raqami qo'yilmaydi;
- 6) foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati;
- 7) jadval, diagramma, grafik, rasm va sxemalardan tashkil topgan ilovadan tashkil topadi.

Ilovalar qa'iy ketma-ket tikiladi.


AXBOROTNI OG'ZAKI RAVISHDA UZATISH

Bo'limda ilmiy tavsifdagi ma'lumotlarni og'zaki ravishda taqdim etish shakli – ma'ruza, shuningdek o'quv topshirlig'ini bajarish natijasi – taqdimot qarab chiqiladi.


| Gapisish – bu nutqiylar o'zaro harakat qilishning eng faol shakli bo'lib uning yordamida og'zaki ravishda muloqat amalga oshiriladi; ma'ruza, xabarlar bilan so'zga chiqishda mustaqil faoliyat sifatida namoyon etiladi.

ILMIY TARZDAGI NUTQ: TAVSIFY XUSUSIYATLARI

Ilmiy tarzdagi nutqda maqsadni tahrinlash



Monologik tarzda gapirish sifati



TAQDIMOT (XABAR BERISH)

Taqdimot – o'quv (ilmiy) ish haqida og'zagi ravishda habar berish.

Taqdimot o'tkazish shakllari:

- Interfaol dialog (masalan, konsalting firmasi – kompaniya vakillari)
- Barcha guruh ishtiroqchilari so'zga chiqadi
- Guruh boshlig'i so'zga chiqadi

• *Muvaffaqiyatli taqdimotning sirlari*

- gapirayotganingizda doimo ishonchli bo'ling;
- aniq, buro gapiring;
- fikrning doimo tugallangan jumla bilan hamda muhim joylariga urg'u berib ajratgan holda ifoda eting;

- bir maromda va asta gapirmang, ammo nisbatan qattiq gapirmang ham;
- hushmuomali va ziyran bo'ling, jahldor bo'lman;
- doimo kulib turgan holda boshlang va tugating, ammo bunga ortiqcha harakat qilmang;
- quyidagi so'z birikmalarini qo'lllamang: «Mumkin bo'lsa», «Uni kim biladi?», «Mumkin ... » va shu kabilar. Bu kabi jumlalar sizning chiqishingizda o'ziga ishonchlilik bo'lmaslikni keltirib chiqaradi va natijada siz o'zingizga ishonchni yo'qotasisiz;
- ko'rish kontakti (bog'lanishi) ni saqlashga harakat qiling – tinglovchilarga qarashga harakat qiling (har bir qatnashchiga 3 sekunddan);
- oyoqni chalishtirmang, qo'lni orqada ushlamang, stol, minbarga tayanmang, kuchli imo-ishora qilmang, ruchka, markerni o'ynatmang, yelpig'ich, qog'oz bilan yelimpang va shu kabilar;
